

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DAVRONOVA FOTIMA PIRNAZAROVNA

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA TALABALARNI INGLIZ
TILIGA TEZKOR O'QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstracts of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Davronova Fotima Pirnazarovna

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor o‘qitishning
pedagogik asoslarini takomillashtirish 3

Давронова Фотима Пирназаровна

Совершенствование педагогических основ ускоренного обучения
английскому языку в условиях цифровых технологий 21

Davronova Fotima Pirnazarovna

Improving pedagogical basics in the context of digital technologies with a rapid
training of students in the English language 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DAVRONOVA FOTIMA PIRNAZAROVNA

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA TALABALARNI INGLIZ
TILIGA TEZKOR O'QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.Phd/Ped1901 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://samdu.uz/ixtisoslashgankengashlar>) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ibraimov Xolboy Ibragimovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Taylanova Shoxida Zayniyevna
pedagogika fanlari doktori, dotsent
Begmatova Dilnoza Muxtorovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy daraja beruvchi huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «13» May da soat 14⁰⁰ da bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)239-12-29; faks:(0366) 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «24» April kuni tarqatildi.
(2023-yil «24» April da 26 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.M.Maxmudova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor

Sh.R.Urakov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.Sh.Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida intensiv koʻlamda quloqch yozayotgan raqamli texnologiyalar asrida boʻlajak mutaxassislar uchun xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirish, shu asnoda madaniy, siyosiy, iqtisodiy chegaralarni kengaytirish alohida dolzarblilik va ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarni taʼlim jarayoniga tatbiq qilish orqali taʼlim subyektlarining bilim olish va bilim berish imkoniyatlarini kengaytirish globallashtirish jarayonida alohida dolzarblilik kasb etib, boʻlajak kasb egalarini mutaxassislik kompetensiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi vazifani oʻtamoqda.

Jahondagi yetakchi taʼlim tashkilotlarida va ilmiy-tadqiqot tekshirish (Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya) markazlarida boʻlajak mutaxassislarning xorijiy tillarni oʻrganish orqali madaniy-aksiologik qadriyatlarini rivojlantirish, taʼlim jarayoniga axborot-kommunikatsiya vositalari orqali taʼlim unumdorligini oshirish, ularning tillarni oʻzlashtirish negizida professional kompetentligini yuksaltirishga oid tadqiqot ishlari koʻlami oshmoqda. Shuningdek, xorijiy tillarni oʻqitishda pedagoglarning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun turli yangi mazmundagi didaktik shakllardan foydalanish, innovatsion tavsifdagi taʼlim vositalarini amaliyotga qoʻllash, tahsil oluvchilarda motivatsion va kognitiv qiziqish doiralarini kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Bu esa taʼlim jarayonida akademik bilimlarni oʻzlashtirishga moʻljallangan texnologiyalarni qoʻllash asosida tillarni oʻzlashtirishni jadallashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, “intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xorijiy tillarni chuqur oʻrganish” boʻyicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Respublikamizda soʻnggi yillar ichida “zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqur oʻzlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini taʼminlash; oliy taʼlim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, taʼlim, fan va ishlab chiqarishning oʻzaro mustahkam integratsiyasini taʼminlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb qilish va har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga katta eʼtibor berilmoqda”¹. Shu bilan birga, taʼlim jarayonini innovatsion bosqichga koʻtarish hamda oʻqitishning ilgʻor shakllaridan foydalanish asosida talabalarning kelgusidagi faoliyati uchun zarur boʻlgan malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakalarni shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanib, oʻqitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son “Oliy va oʻrta

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4851-son qarori/ <https://lex.uz/docs/5032128>.

maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsyepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 6 oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integrasiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori hamda sohaga aloqador me'yoriy-huquqiy hujjatlarda berilgan vazifalarni bajarishda ushbu dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda chet tillarni o'qitish masalalari: G.U.Axmedova, G.X.Bakiyeva, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, S.A.Misirov, U.U.Jumanazarov, B.G'.Kulmatov, D.R.Hoshimova; nofilologik yo'nalishlarda tillarni o'qitish muammolari T.K.Sattarov, B.R.Samatova, S.T.Shirmatovlar tomonidan o'rganilgan.

Respublikamizda axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida tillarni o'qitish masalalari bo'yicha S.X.Abdullayeva, M.Ch.Aliyev, G.S.Sobirova, D.X.Kadirkbekova, A.B.Raxmonov; U.Sh.Begimqulov, M.M.Muxitdinov, S.Q.Tursunov, M.X.Lutfillayev, N.A.Muslimov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida chet tillarni o'rganish va o'zlashtirishning lingvodidaktik tomonlarini o'rgangan hamda turli ta'limiy texnologiyalarni ushbu jarayonga tatbiq qilish metodikalarini yaratish bo'yicha sa'y-harakat qilgan olimlardan Ye.S.Polat, S.V.Titova, L.S.Konovales, V.V.Kopilova, L.A.Podoprigrorova, S.V.Fedorovalar; xorijiy mamlakatlarda S.B.Bates, M.K.Barbour, H.Bijnens, J.Sheils, R.Gairns, Z.Yang kabi olimlarni ko'rsatish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F8062 raqamli "Xorijiy tillarni o'qitishning kasbiy-pedagogik texnologiyalari va ta'limni boshqarishni takomillashtirishning pedagogik-psixologik masalalari" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor oqitishning pedagogik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz tilini tezkor oqitish asosida talabalarning til o'zlashtirish qobiliyatlari darajasini til kompetentsiyalarini baholash algoritmi doirasida rivojlantirish;

ingliz tilini o'zlashtirishning kreativ, mustaqil, refleksiv boshqichlarini faoliyatga aloqadorlik jihatlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirish;

raqamli texnologiyalarga tayangan holda ingliz tilini tezkor o'qitish modelini takomillashtirish;

o'quv axborotini o'zlashtirishda raqamli texnologiyalarga murojaat etishga oid o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyalar yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, samaradorligini tahlil etish.

Tadqiqotning obykti sifatida nomutaxassislik ta'lim yo'nalishlarida talabalarga ingliz tilini raqamli texnologiya ("Veb-kvest") yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti hamda Guliston davlat universitetida jami 998 nafar respondent ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini nomutaxassislik ta'lim yo'nalishlarining 1-bosqich talabalariga raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini tezkor o'qitish texnologiyalari, metodlari, vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining leksik, pragmatik, sotsiolingvistik til o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Veb-kvest" texnologiyasining kognitiv, kreativ, mustaqil, refleksiv bosqichlari produktivlik, ijodiy-tadqiqiy darajalardagi konstruktiv faoliyatli komponentlar doirasida takomillashtirilgan;

talabalarining kelgusi faoliyatiga aloqador kasbiy-shaxsiy, gnostik, prognozlash kompetensiyalar mazmuni motivatsiyali til o'zlashtirish dinamikasiga mo'ljallangan raqamli ta'lim texnologiyalarining audivizual va simulyativ imkoniyatlariga muvofiq ingliz tilini o'qitish integratsiyasiga moslashtirish asosida rivojlantirilgan;

talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitish modeli vizual-amaliy va immersiv variativlikka ustuvorlik berish asosida raqamli ta'limning ierarxik paradigma konstruksiyasini ob'ektiv baholash yordamida takomillashtirilgan;

nomutaxassislik bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini tezkor o'qitishga mo'ljallangan va mustaqil ta'lim topshiriqlarini kelgusidagi kasbiy faoliyatga identiv moslashtirishga yo'naltirilgan mobil ilovalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilini tezkor o'qitish modeli raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirilgan;

"Talabalarni ingliz tiliga tezkor o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish" nomli monografiya tayyorlangan va talabalar tomonidan ingliz tilini o'zlashtirishning kognitiv, kreativ, mustaqil, refleksiv bosqichlari takomillashtirilgan;

nomutaxassislik bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini tezkor o'qitishga mo'ljallangan mashq va topshiriqlar majmui ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uning representativ tizimlarda qo'llanilgan metodlar, vositalari bilan tavsiflanadi. Shuningdek, rasmiy manbalardan olingan dalillar, ilmiy ishlanmalar natijalaridan foydalanilganligida kuzatiladi. Natijalarga statistik metodlar vositasida ishlov berilganligi qiyoslanayotgan tajriba to'plamlari orasidagi farqlarni ob'yektiv baholash imkoniyatini kengaytirgan. Amaliyotda qo'llanilgan, tavsiya etilgan metodikalarning samarali natijaviyligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan texnologiyalar samarasi o'quv amaliyotida aprobatsiyadan o'tib, o'zining samarali natijaviyligi asosida didaktik jarayonlarga tatbiq qilindi va tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dastur, tavsiyalardan qo'llanma tayyorlash shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni mazmunini takomillashtirishda foydalanilganligida o'z ifodasini topdi. Ingliz tilini tezkor o'qitish metodikasi raqamli texnologiyalar sharoitida mobil ilovalarning ierarxik tartibda joylashtirilgan topshiriqlarini tizimlashtirish orqali takomillashtirilgan va talabalarning axborot-kommunikatsiyalari vositasida mustaqil bilim olish imkoniyatlari kengaygan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Oliy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor o'qitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalar tomonidan leksik, pragmatik, sotsiolingvistik til o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Veb-kvest" texnologiyasining kognitiv, kreativ, mustaqil, refleksiv bosqichlari kasbiy-shaxsiy, hissiy-emosional faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan til o'zlashtirishning kognitiv, kreativ, mustaqil, refleksiv bosqichlarini tashkil qilish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan MUZ-2015-0908164325 raqamli "Kommunikativ-komulyativ metodi asosida umumta'lim maktabi o'quvchilariga ingliz tilini samarali o'qitish texnologiyalari" mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 15 sentabrdagi 01/15-09/203-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalar tomonidan ingliz tilidagi o'quv materialini tezkor o'zlashtirish bosqichlarini belgilashga sharoit yaratilgan va fikrlash qobiliyatining moslashuvchanligini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni integrativ qo'llash asosida talabalarning leksik, grammatik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

talabalarning kelgusi faoliyatiga aloqador kasbiy-shaxsiy, gnostik, prognozlash motivatsiyali til o'zlashtirish dinamikasini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflardan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovasion tadqiqot loyihasining amaliy topshiriqlarini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 26 sentabrdagi 2676/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada erishilgan

yutuqlar va ishlab chiqilgan tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutining o'quv jarayoni va xalqaro loyihalarini amalga oshirish jarayoni imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitish modeli vizual-amaliy va immersiv variativlikka ustuvorlik berish asosida ta'lim jarayonini didaktik optimallashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan MUZ-2015-0908164325 raqamli "Kommunikativ-komulyativ metodi asosida umumta'lim maktabi o'quvchilariga ingliz tilini samarali o'qitish texnologiyalari" mavzusidagi loyiha doirasidagi amaliy topshiriqlarni bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 15 sentabrdagi 01/15-09/203-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ingliz tiliga tezkor o'qitishda raqamli texnologiya imkoniyatlari kengaytirilgan va didaktik ta'minotini rivojlantirishga xizmat qilgan;

talabalar tomonidan o'quv axborotini o'zlashtirishda raqamli texnologiyalarga murojaat etish bo'yicha shakllantirilgan tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining ingliz tilini raqamli texnologiyalar yordamida tez va oson o'qitishning bugungi kundagi ahamiyati haqida "Samarqand sadosi" radio eshittirishlarini; "Assalom Samarqand" ko'rsatuvlarini tayyorlashda, shuningdek qator ko'rsatuvlarni tashkil etishda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2022 yil 12 oktabrdagi 01-12/383-son ma'lumotnomasi). Natijada nomutaxassislik ta'lim yo'nalishi talabalar uchun tinglab tushunish, ingliz tilidagi matnlarni idrok etish, hissiy-emotsional, hissiy rivojlanish manbai doirasida nutq texnikasini rivojlantirish imkoniyatlari kengaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida keng ommalashtirilgan va jami 8 ta ish jamoatchilik muhokamasiga havola etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot bo'yicha 28 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv-metodik qo'llanma, 2 ta elektron o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya 120 sahifani tashkil etib, u kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining


amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitishning nazariy – metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitishning pedagogik – konseptual asoslari yoritilgan.

Mazkur bobda ingliz tilini o'qitish borasida mamlakatimizda bir qator hukumatimiz tomonidan me'yoriy-xuquqiy hujjatlar qabul qilinganligi, bularning barchasi yoshlarga til o'rganishga katta imkoniyat yaratib berganligi va bo'lajak mutaxassislarining iqtidorini yanada yorqinroq namoyish qilishga qaratilganligi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishga katta e'tibor qaratilib kelinayotganligi, o'quv dasturlari, rejalari zamon talablari asosida shakllantirilayotganligi, biroq, hanuzgacha talabalarga ingliz tilini o'qitishda ayrim ziddiyatli jihatlar mavjudligi va bu kamchiliklarni raqamli texnologiyalar yordamida tuzatish imkoniyati kengayganligi haqidagi fikrlar ilmiy dalillangan.


Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitish mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuqlarini qondirishga, o'z nuqtai nazarlarini ilmiy asoslashga imkoniyat yaratadi va ingliz tilini o'qitishda samarali natijalarni beradi. Shu jihatdan olganda, raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitish kelgusi mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan kreativ qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini o'lchash va monitoring asosida tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim muhitida quyidagi qo'llanilayotgan raqamli texnologiya ko'rinishlarini tavsiflash mumkin: qo'shimcha reallik; virtual reallik; mashina yordamida o'qitish; robototexnika; 3D-pechat bulutli; veb-kvest texnologiyalari va boshqalar (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta'limda qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar turlari

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o‘qitishda asosiy e‘tibor kompyuterli o‘yin shaklidagi o‘quv faoliyatiga va veb-kvestlarga qaratish samarali natija beradi. Bu esa, ko‘p bilim berish imkoniyatlarini yaratib beruvchi metodlardan foydalanish orqali amalga oshadi. Bunga avvalambor, yangi o‘quv materialini mazkur texnologiyalar asosida o‘zlashtirish oson kechishini kuzatish mumkin. Taqdim qilinayotgan o‘quv materialini bayon etish natijasida mavzuning maqsadi, uning asosiy mazmuni va o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan savollar talabalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Ingliz tilidagi yangi mavzu veb-kvest yoki kompyuterli o‘yinlar, yohud bulutli texnologiyalar asosida barcha talabalarning faol ishtirokida olib borilgandagina, ularda o‘rganilayotgan mavzuga bo‘lgan qiziqish ortadi. O‘quv jarayonida kvestlardan foydalanish, shunchaki o‘quv materialni platformadan yuklab olish emas, balki vaziyatli topshiriq, jumboq holatidagi masalani yechish, talabalarda ko‘proq qiziqish uyg‘otadi, bilimga jalb qiladigan veb-kvestlar ularning bilim darajasini sezilarli darajada oshiradi (2-rasm).



2-rasm. Ingliz tilini tezkor o‘zlashtirishda raqamli texnologiyalarning pedagogik jihatlari

Rasmda ifodalanganidek, talabalarning auditoriya mashg‘ulotlarida veb-kvestlardan foydalanishlarida qabul qilinayotgan axborot ruhiy jarayonlar: *ko‘rish, eshitish, idrok etish analizatorlari* negizida kechadi.

Ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalar sohasi bilan aloqadorlikning ayrim jihatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillardan aniq bo‘lishicha, raqamli

texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o‘qitish masalasi to‘laqonli o‘z yechimini topmaganligini ko‘rish mumkin.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda oliy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o‘qitish mazmuni, metod, vositalari haqida fikr yuritilgan. Ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda AKT uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, ta’lim iste’molchilari o‘rtasida sifatli dialogli muloqotni yo‘lga qo‘yish, ta’lim sub’yektlariga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, o‘zaro hamkorlik aloqalari samaradorligini tubdan o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi va talaba maqsadga qaratilgan faoliyatda bo‘ladi. Bunda axborot-ta’limiy resurslarning mavjudligi, o‘quv-metodik ta’minlanganlik moddiy-texnik bazaning mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi. Jadvalda talabalarning ingliz tiliga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘qituvchi va talaba faoliyatining tarkibiy tuzilmasi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.

O‘qituvchi va talaba faoliyatining didaktik xususiyatlari

O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Talabaning didaktik faoliyatida ingliz tiliga oid qiziqishni hosil qilish, mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish.	1. Ingliz tilini o‘rganishga ijobiy motivasiyani hosil qilish bo‘yicha shaxsiy faoliyat, individuallikning namoyon bo‘lishi.
2. Doimiy ravishda bilimlarni mustahkamlash va talabalarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, AKT vositalaridan foydalanish.	2. Avval o‘rganilganlarini mustahkamlash va yangi AKT orqali bilimlarni idrok etish; yangi axborotga ega bo‘lish.
3. Talabalarning bilish jarayonlarini boshqarish; AKT vositalari triadasi (o‘qituvchi-talaba-AKT) da ishlash.	3. AKT vositasida tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish.
4. Nazariy bilimlardan amaliy foydalana olish jarayonini boshqarish.	4. AKT vositasi orqali mustaqil fikrlash.
5. AKT vositalaridan foydalanish orqali evristik va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish.	5. Yuzaga keluvchi muammolarni mustaqil amaliy faoliyatda qo‘llay olish.
6. Mustaqil fikrlashning shakllanishidagi o‘zgarishlarni nazorat qilish va keyingi rivojini bashoratlash.	6. Kinestetik sezgilarning rivojlanishi; Ta’lim jarayonida kognitiv va perseptiv anglashning sodir bo‘lishi.

Didaktik muhit mexanizmlarini takomillashtirishda sifatli bilim, ko'nikma, malaka egallashning maqsadi, o'qituvchi va talaba faoliyati, mazmun, metod, shakl, vosita, natija ishtirok etadi.

Ingliz tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlar talabalarda ingliz tilini tezkor o'qitishga mo'ljallab, qo'llanishi lozim. Iqtidorli talabalarni tarbiyalash, ularning qobiliyatlari va iqtidorlarini rivojlantirish borasida bugungi kunda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa qobiliyatlarning yangi qirralarini tadqiq etish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar vositasidagi ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hamkorlikda ularning yechimini topishning turli usullari mavjud. O'zlashtirilgan bilimlarni AKT vositasida chuqurlashtirish natijasida talabalarda muayyan darajada amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Pedagogik hamkorlikni vujudga keltiradigan texnologiyalarning asosiy negizini turli o'quv vaziyatlarida talabalarning birgalikda, jadal harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratish imkoniyati tashkil qiladi.


Ma'lumki, talabalar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarning darajalari turlichadir. Ba'zi bir talabalar taqdim qilingan axborotlarni tez o'zlashtirsalar, boshqalari mazkur ma'lumotlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishlari uchun muayyan vaqt talab qilinadi. Bunday talabalar bilan elektron ta'limiy trenajyorlar asosida o'quv materiallari ustida ishlash imkoniyati vujudga keladi. Ayrim talabalar bilmaganlarini o'qituvchilari yoki guruhdoshlaridan so'rashga tortinadilar. Shu bilan bir qatorda, o'zlari tushunmagan o'quv materiallari ustida ishlash bunday talabalar uchun qiyin va zerikarli bo'lib tuyuladi. Bunday vaziyatda ingliz tili o'qituvchisi elektron ta'limiy trenajyorlardan samarali foydalanishi kerak. Bunda kichik guruhlarda ishlash metodidan foydalanish samaralidir. Chunki kichik guruhlar doirasida talabalarning o'zaro ruhiy-pedagogik jihatdan teng kelishlariga e'tibor qaratiladi.

Har bir kichik guruhga o'qituvchi tomonidan alohida-alohida ETT (elektron ta'limiy trenajyorlar) asosida topshiriqlar beriladi. Guruh a'zolari mazkur topshiriq doirasida o'z vazifalarini bo'lib oladilar. Ularning o'z vazifalarini bajarishga mas'ulliklari o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi, ularning e'tiborlari o'quv topshirig'iga jalb qilinadi.

Tadqiqot mobaynida bakalavriatura tahsil oluvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan metodik ishlar, talabalarning o'z kasbiy-shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy kompetensiyasini oshirish ustida faol ishlashini talab qiladigan texnologik yo'nalishlar va o'z-o'zini baholash parametrlari ishlab chiqilganligida namoyon bo'ldi.

Interfaol texnologiyalarga ustuvorlik berish asosida ingliz tilini tezkor o'rganish modelida raqamli vositalardan foydalanish, kelgusidagi aniq maqsadga qaratilgan o'quv rejalari va dasturlari asosida bo'lajak pedagogning ruhiy, intellektual, estetik salohiyatini ma'lum maqsadga yo'naltirish, shu jumladan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash talablari, kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichlari inobatga olindi.

Modelda aks ettirilganidek, oliy ta'lim muassasalari talabalarini ingliz tiliga tezkor o'qitish uchun interfaol metodlarga ustuvorlik berildi (3-rasm).



3-rasm. Interfaol texnologiyalarga ustuvorlik berish asosida ingliz tilini tezkor o'qitish modeli

Tajriba-tadqiqot davrida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitish uchun 2019-2020, 2020-2021, 2021-2022 o'quv yillarida jami 998 nafar respondent, shulardan

981 nafar talabalar va 17 nafar professor-o'qituvchilar tajriba-sinov ishlariga jalb qilindi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish uchun tajriba maydonlari sifatida tanlab olingan OTMLar amaliyotiga ingliz tilini tezkor o'qitish metodikalari joriy etildi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitishda aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar ko'rsatishicha, quyidagi metodologik talablarni amalga oshirish lozim:

1) talabalarning ingliz tilini o'rganishlaridagi mustaqil faoliyatining ustuvorligi;

2) talabalarning individual va yosh xususiyatlarini, shuningdek ularning til o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishning aktual va potensial darajalarini hisobga olish;

3) asosiy nazariy materiallarni o'zlashtirishda talabalar ma'lum kasbiy mahorat darajasiga erishishga ishtiyoqmandligi;

4) talabalarni ingliz tiliga tezkor o'qitish uchun qobiliyatlarining turli komponentlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

5) talabalarda AKT vositasida ingliz tilini tezkor o'qitish faoliyatiga ijobiy motivasiya va doimiy qiziqishni shakllanishiga shart-sharoit yaratish.

Tajriba maydonchalariga jalb qilingan talabalarning ingliz tilini o'zlashtirish holatini o'rganish uchun o'tkazilgan anketa savollari, topshiriqlar majmui, maxsus shakllantirilgan tajribaviy dastur, muallif tomonidan yaratilgan metodik qo'llanmalar talabalar o'rtasida o'qitilayotgan o'quv kursiga bo'lgan motivasiyani kuchaytirishi, til o'zlashtirish darajasini oshirganligi aniqlandi. Shuningdek, talabalarda motivasiya (48%), ingliz tilida muloqot qilishga qiziqish (92%), interfaol metodlar asosida ingliz tilidagi tushunchalarni anglash (61%) ko'rsatkichlariga ega bo'lganligi aniqlandi.

Dissertasiyaning uchinchi bobi "**Ingliz tilini tezkor o'qitish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari, natijalari, samaradorligi**" deb nomlanib, unda raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov metodikasi o'z aksini topgan.

Tajriba-tadqiqot ishlari 2019-2022 yillarda tashkil etilib, raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitishga yo'naltirildi. Bunda asosan talabaning ingliz tilidagi o'quv materialini o'zlashtirishi ularning ijodiy fikrlashini uzluksiz shakllantirib borish va qobiliyatini rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshirildi.

Tajriba ishlarida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (SamDVMCHBU), Jizzax davlat pedagogika universiteti (JDPU) hamda Guliston davlat universiteti (GulDU) belgilandi. Tajribalarda 981 nafar 1 kurs talabalar va 17 nafar professor-o'qituvchilar qatnashishdi. Jami tadqiqotda 998 nafar respondent ishtirok etdi.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetidan talabalar soni - 327 nafar, shulardan 163 nafari tajriba guruhida, 164 nafari nazorat guruhida; professor-o'qituvchilar soni - 6 nafar, jami - 333 nafar respondent qatnashdi.

Jizzax davlat pedagogika universitetidan talabalar soni - 327 nafar, shulardan 163 nafari tajriba guruhida, 164 nafari nazorat guruhida; professor-o'qituvchilar soni - 5 nafar. Jami - 332 nafar respondent ishtirok etdi.

Guliston davlat pedagogika universiteti talabalar soni - 327 nafar, shulardan 163 nafari tajriba guruhida, 164 nafari nazorat guruhida; professor-o'qituvchilar soni-6 nafar. Jami - 333 nafar respondent qatnashdi.

2-jadval.

Tajriba-tadqiqotga jalb qilingan OTMlar va qatnashgan respondentlar soni

№	OTM nomi	Tajriba-tadqiqotda qatnashgan talabalar soni	Professor-o'qituvchilar soni
1.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetidan	327	6
2.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	327	5
3.	Guliston davlat universiteti	327	6
	Jami	981	17
998 nafar respondent			

Talabalarni ingliz tiliga tezkor o'qitishni ta'minlovchi va bilish darajasini ko'rsatuvchi mezonlar quyidagicha saralandi (3-jadval).

3-jadval

Talabalarning ingliz tilini bilish darajasini ko'rsatuvchi mezonlar

Talabalarning ingliz tilini o'zlashtirganlik darajasi	Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning ingliz tilini tezkor o'zlashtirishlarini ko'rsatuvchi mezonlari
I-yuqori daraja	Ingliz tilidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati yuqori; Ingliz tilida tinglab-tushuna oladi; Ingliz tilida berilgan matndagi ma'lumotlarni o'qib, tushunadi, ularni tarjima qila oladi; So'z iboralari va gaplarni qiyinchiliksiz tuza oladi; O'qish texnikasi yuqori; Suhbatdoshining fikrini anglab, unga javob bera oladi. Ingliz tili o'quv kursi bo'yicha fanga oid va tayanch kompetensiyalar shakllangan. Axborot kommunikasiya vositalari va ulardan foydalanish ko'nikma va malakalari, innovasion metodlar va ular tavsifnomalari bo'yicha bilimlar shakllangan.
II-o'rta (qoniqarli) daraja	Ingliz tilida tinglab-tushuna olish darajasi o'rtacha; Ingliz tilida berilgan matndagi ma'lumotlarni o'qib, tushunadi, lekin tarjima qilishda qiynaladi; So'z iboralari va gaplarni tuza oladi; Texnik vositalar, ular bilan ishlash ko'nikma va malakalari shakllangan; Nazariyani amaliyotga joriy etish mazmunini anglaydi, uning talablarini biladi, ular to'g'risida fikr yurita oladi, ammo ko'proq ana'anaviy metodlarga intiladi, ularni yaxshiroq qo'llay oladi. Barcha ma'lumotlar amaliy harakatlar bilan ta'minlanmagan, nazariy holda mavjud. Bilim, ko'nikma va malakalar umumiy ma'lumot sifatida shakllangan. Ammo konkret bilimlar mavjud emas. Shaxsiy motivatsiya, tashabbus va o'z kasbiga qiziqish mavjud bo'lishi shart ekanligini inkor etadi.
III-qoniqarsiz daraja	Nazariyani amaliyotga joriy etish muhim hayotiy mezon sifatida qadrlanmaydi va uni kelajakdagi shaxsiy pedagogik faoliyatida rivojlantirish choralari ko'rilmaydi.

Jadvalda ko'rsatilganidek, tajriba-tadqiqotda talabalarning ingliz tilini bilish darajasini ko'rsatuvchi mezonlar saralandi. Mazkur darajalar va mezonlarning ishlab chiqilishi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari o'zlarining faoliyatlari va sayi-harakatlarini baholashga yordam berdi.

Tajriba ishlari uch bosqichda tashkil etildi va o'tkazildi.

I-bosqich (2019-2020 o'quv yili). Mazkur eksperimental guruhlarining ishtirokchilari o'rtasida test va anketa so'rovlari o'tkazildi. Testlar va anketalardan foydalanildi, talabalarining ingliz tilini tezkor o'rganish mezonlari tahlil etildi.

II-bosqich (2020-2021 o'quv yili). Mazkur bosqichda ta'lim beruvchi mashg'ulotlar o'tkazilib, ular talabalarining ingliz tilini tezkor o'rganish kompetentligini rivojlantirishga yo'nalgan.

III-bosqich (2021-2022 o'quv yili). Mazkur bosqichda test, anketa so'rovlari va ta'lim beruvchi mashg'ulotlarning natijalari hamda ularni umumlashtirish, qiyoslash va eksperimental guruhlarda raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligini baholash miqdor va sifat tahlili ko'rinishida amalga oshirildi.

Quyidagi jadvallar asosida respondentlarning tajribadan keyingi va tajribadan oldingi hamda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi N_1 gipoteza va unga zid bo'lgan N_0 gipoteza tanlandi (4; 5; 6-jadvallar).

4-jadval

SamDVMCHBU talabalarining ingliz tilini o'zlashtirganlik darajasi

